

Uzoq muddatli rejalashtirish — yo'qotishlardan qochish tendensiyasi investorlarni uzoq muddatli investitsiya strategiyalariga e'tibor qaratishga undaydi. Bu esa qisqa muddatli bozor o'zgarishlariga haddan tashqari reaksiya qilishning oldini oladi.

Xulq-atvor moliyasi iqtisodiy modellar ichiga psixologik omillarni kiritish orqali moliyaviy bozorlarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Investorlar har doim ham ratsional emasligi va turli yondashuvlar ta'sirida bo'lishi mumkinligini tan olish orqali, bu soha yanada samarali investitsiya strategiyalarini va moliyaviy siyosatlarni ishlab chiqishga yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kenton, W. (2023). *Behavioral Finance*. Investopedia.
2. Corporate Finance Institute. (2023). *Behavioral Finance*. corporatefinanceinstitute.com
3. Financial Edge Training. (2023). *Behavioral Finance*. fe.training
4. Wikipedia contributors. (2023). *Behavioral economics*. In *Wikipedia, The Free Encyclopedia*. en.wikipedia.org

KLASTER FAOLIYATIDA INNOVATSIYALARNI JORIY QILINISHI

I.I. Umaraliyev

TDIU Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda innovatsiya, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi taraqqiyotni belgilab beradigan muhim omil hisoblanadi. Shu bois ilm va amaliyot uyg'unligini ta'minlash har bir soha oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Shuningdek, klaster tizimida innovatsion faoliyatini tezlashtirish asosida eng avvalo, raqobatbardoshligini oshirish va global raqobatning kuchli ta'siriga qarshi turishdagi milliy va mintaqaviy rivojlanish talablariga shu asosida to'la javob beradi.

Innovatsion klasterlarni shakllantirish ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Innovatsion klasterlarni shakllanirishdan maqsad – shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan bir xil soha korxonalari va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo'lgan ta'lim, ilmiy, injineri, konsalting standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg'unlashtirish – innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga keng imkoniyatlar yaratish hisoblanadi. Hozirgi sharoitda innovatsion faoliyat O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Ushbu omildan samarali foydalanish mamlakatimizda klaster tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashning yagona yo'lidir. Islohotlar jadallashib, jahon iqtisodiyotining globallasuvi kuchayib borayotgan sharoitda mamlakatimiz qisqa muddatda klaster tizimini rivojlantirishning innovatsion yo'lga jadal o'tishni amalga oshirishi, iqtisodiyotning ushbu strategik ahamiyatga ega

tarmog'ini zamon talablariga javob beradigan darajaga yetkazishi lozim. Aks holda klaster tizimi rivojlanishdan ortda qoladi va raqobatbardosh bo'la olmaydi.

Innovatsiya inglizcha "innovationas" - kiritilgan yangilik, ixtiro bo'lib: - texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; - ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishidir [7]. Innovatsiya tushunchasi XIX asr tadqiqotlarida paydo bo'ldi. "Innovatsiya" kontseptsiyasi XX asr boshlarida Avstraliyalik va Amerikalik iqtisodchi J.Shumpeterning ilmiy ishlarida "innovatsion birikmalar" va iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlarning tahlillari natijasida olingan. Shumpeter 1900 yillarda innovatsiya terminini iqtisodiyotda ilmiy foydalanishga kiritgan birinchi olimlardan edi. Innovatsiya shunchaki o'zgarish emas balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan yagona yondashuvdir. Innovatsiya – bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

Innovatsion klaster - innovatsion startaplar, kichik, o'rta va yirik firmalar, shuningdek, bir xil tarmoq va mintaqada faoliyat yurituvchi va intensiv o'zaro hamkorlik, imkoniyatlarni almashish va bilim almashish orqali innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan mustaqil korxonalar guruhi. va kompetensiyalar, texnologiyalar transferiga hissa qo'shish, hamkorlik tarmoqlarini yaratish va klaster sub'ektlari o'rtasida ma'lumot tarqatish.³⁷⁸ Bugungi kunda O'zbekistonda klasterlashning asosiy strategiyasi innovatsion tipdagi klasterlarni yaratish bo'lib, ular oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida amalga oshirilayotgan texnologiyalar va ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish jarayonida paydo bo'layotgan ko'plab yangi kompaniyalarni o'z ichiga oladi. Bunday klasterlar respublikada ilg'or innovatsion g'oyalar va ishlanmalar hayotga tatbiq etilayotgan texnologiyalar va IT-parklar shaklida faoliyat yuritadi. O'zbekistonda innovatsion yo'naltirilgan klasterlar "Tashkent Pharma Park" innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasteri tashabbusi bilan tashkil etilgan bo'lib, bu yerda dori vositalari ishlab chiqarish yirik farmatsevtika tarmoqlari ilmiy laboratoriyalari va ixtisoslashtirilgan institutning innovatsion ishlanmalari asosida amalga oshiriladi. Innovatsion klasterlarga Quyosh klasteri tashkiloti, kimyoviy va texnologik tadqiqotlar va ishlab chiqarish klasterlari kiradi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli innovatsion klasterlar ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy infratuzilmaning butun majmuasini o'z ichiga olgan yirik aglomeratsiyalardir. Innovatsion rivojlanishdagi yutuqqa asosan mamlakat va jahon darajasida innovatsiyalarning muhim massasini

³⁷⁸ Рогатных Елена, Сердунь Марина. Зеленая экономика и ее влияние на экономическое развитие в XXI веке // Российский внешнеэкономический вестник. 2022. №3. Стр. 21. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zelenayaekonomika-ieee-vliyanie-na-ekonomicheskoe-razvitie-v-hhi-veke>.

to'plash bilan erishish mumkin, bu munosabatlar tarmog'ini yaratishni o'z ichiga oladi: ta'lim - fan - amaliyot - ishlab chiqarish. O'zbekistonda poytaxt aglomeratsiyasi negizida muhim ilmiy-texnikaviy va ta'lim salohiyati Toshkent shahrining innovatsion yo'nalishlari, yuqori texnologiyali tarmoqlari va hududlarida jamlangan yirik "Toshkent" ilmiy-ishlab chiqarish klasterini yaratish imkoniyati mavjud (Chirchiq, Ohangaron, Zangiota qishlog'i va boshqalar) - zamonaviy sanoat kooperatsiyasi markazlari. Yangi tarmoqlar bilan kengayib borayotgan sanoat klasteri kuchli kooperatsiya aloqalari mavjud bo'lsa, klaster a'zolari bir vaqtning o'zida ushbu tarmoqda bir-biri bilan raqobatlashsa va hamkorlik qilsa, bir-birini to'ldirsa va alohida kompaniyalar va umuman klasterning raqobatdosh ustunliklarini kuchaytirsas, raqobatbardosh bo'ladi.

Klaster usulining afzalliklari, avvalo, shahar, tuman va viloyat hududida joylashgan bir soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo'lgan ta'lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, shuningdek, boshqa xizmatlarni uyg'unlashtirish — innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish orqali raqobatbardosh tovarlar yaratishda ko'zga tashlanadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. " O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 23.10.2019 yildagi PF-5853-son

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2016 yil 2 dekabrda PQ-2687 sonli "To'qimachilik va tikuv-trikataj sanoatini rivojlantirishning 2017 yillarga mo'ljallangan chora – tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qarori

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Paxta to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora tadbirlar to'g'risida"gi 16.11.2021 yildagi PF-14 son

4. A.Marshall, principles of Economics, 1890.

5. Murtazo Axmedovich Rahmatovning "Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida" T.: Zamin nashr" 2021, 212b

JAHON MOLIVAVIY-IQTISODIY INQIROZ SHAROITIDA MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARNING STATISTIKTAHLILI (O'RTA OSIYO 2005-2010-YILLARDA)

Akbarova Barno Shuxratovna

*TDIU "Iqtisodiy statistika@ kafedrasi dotsenti,
iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Shamiradova Sabina Byashim qizi

TDIU 3-bosqich talabasi

Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz AQShdagi ipoteka banklarining krizis holatidan boshlanib butun dunyoga tarqala boshladi ushbu vaziyatdan O'rta